

OVOZ REJISSORLIGI SOHASI RIVOJLANISH TARIXIDAN**Jo'rayev Dilmurod Rasuljonovich****O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi****Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti tadqiqotchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17480194>**

Annotatsiya: Maqolada ovoz rejissorligi sohasida amalga oshirilgan chet el tadqiqotlari haqida ma'lumot berilgan. Ovoz yozish tahlili jarayon holatidan yo'nalish sifatida yuzaga kelgunga qadar bosgan jarayonlarga to'xtalangan, ovoz rejissorlari ish uslubi tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: ovoz rejissorligi tarixi, ovoz operatori, klassik ovoz yozuvlari, mikrofon, akustika, efir, zapis.

Аннотация: В статье представлена информация о зарубежных исследованиях в области звукозаписи. Проводится анализ звукозаписи от стадии зарождения до её становления как отдельного направления, а также анализ стиля работы звукорежиссёров.

Ключевые слова: история звукозаписи, звукооператор, классическая звукозапись, микрофон, акустика, трансляция, запись.

Ovoz rejissorligi sohasi Rossiyada radioeshittiruvlarning muntazamlashuvi bilan paydo bo'lgan. Efir va radiodasturlarning yozib olinishining maxsus xususiyatlari, musiqiy ma'lumotlar va radio uzatuv texnikasi bilimlarini egallagan mutaxassislar tomonidan ovoz signallarini qayta ishlanishini talab qilardi. 1931-yil Moskva, 1932-yil Leningradda birinchi optik mexanik elektron naychali ovoqli tele-eshittirish yo'lga qo'yilgan. 1939-yil Moskva-Leningradda telemarkaz ochilib, o'sha paytdagi ovoz studiyasi elektron lampali uskunalar bilan jihozlangan edi. Radioeshittirish va televideniyaning keyingi keng rivojlanish bosqichi 1950-1980-yillarga to'g'ri keladi. Bu davr ovoz yozish texnikalari davri bo'lgan, birinchi lampali magnitafon, miksher pult, keng yo'naltirilgan mikrafon, texnik parametrlari takomillashtirilgan usulitel va nazorat agregatorlari va stereo ovoqli radioeshittirishlar keng ommalashdi.

Shu davrda Moskvafilm, Leningradfilm va boshqa kinostudiyalarda magnit ovoz yozuvini kiritish, rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan texnik qayta ishlovlar mavjud edi. Steriofonik ko'p yo'lakli magnitafon, steriomikrafon, ancha takomillashgan miksher pultrlari paydo bo'lgan. Texnik bazaning va texnologiyalarning o'zgarishi bilan, ovoz rejissori ishi ham sezilarli darajada o'zgardi, jumladan, ovoz mantaji, ovoz yozish, chastotali korreksiyalash kabi imkoniyatlar yuzaga keldi. Ko'p yo'lakli ovoz yozish, fonogrammaga qayta ishlov berish, ovoz yozish paytida qo'shimcha ishlash va estrada musiqasini yozib olish uchun imkoniyatlar yaratdi.

Bundan 60-70 yil avval klassik orkestr musiqasi atigi 2 yoki 3 mikrofon yoradamida yozib olinar, jarayonga oid ma'lumot deyarli yo'q edi va natija sifati mikrofonlarni tanlash va joylashtirishga, shuningdek, yozuv vositasining xususiyatlariga bog'liq edi.

Hozirgi kunda orkestirni yozib olish usullari mashhur musiqani yozib olish kabi ko'p qirrali: murakkab tartiblashtirish mavjud, akustik kechikishlarni qoplash imkoniyati paydo bo'lgan musiqiy sayqal jarayoni esa faqat mijozning moliyaviy imkoniyatlari va ovoz operatorining qobiliyati bilan cheklanadi. Vositalar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, aksariyat hollarda, maqsad bir xil – akustik voqelikni imkon qadar realistik tarzda yetkazishga harakat qilishdir. Biroq ovoz rejissorlari, operatorlari va ovoz yozadigan kompaniyalarning egalari

o‘zlarining yakuniy maqsadlariga erishish vositalari juda katta farq qiladi. Klassik ovoz yozuvlari yo‘nalishi klassifikatsiyasini birinchi bo‘lib P.Verna 2000-yil noyabr oyida “Mix” jurnalidagi maqolasida qo‘llagan. Ovoz rejissorlarini ish uslubini tahlil qilib, u 3 ta yirik yo‘nalishlarga ajratadi: puristlar, realistlar va individualistlar. Shuningdek, alohida yo‘nalish vakillari sifatida minimalistlarni qo‘shish mumkin va hech qanday holatda ham ularni ko‘p maqolalarda qilingani kabi) puristlar tarkibiga kiritmaslik lozim.

Ovoz yozish tarixi tahlilida ma‘lum bir yo‘nalishning paydo bo‘lish texnologik taraqqiyoti bilan bog‘liq degan xulosaga kelmaslik kerak. Misol uchun, ko‘p miqdordagi treklarga ega bo‘lgan magnitafonlarni (rekorder) paydo bo‘lishi ovoz rejissorlarini simfonik orkestrni yozib olishda bularning barchasidan foydalanishga undagan deb taxmin qilinishi mumkin. Texnik bilimlarga ega zamonaviy tinglovchilar hayron bo‘lib, axir deyarli barcha mashhur studiyalarda Gustav Malerning 8-simfoniyasini yozib olish uchun deyarli barcha yetarli kanallarga ega konsollar mavjud! Simfoniya N-8 mi bemol major- klassik konsertlar repertuaridagi eng yirik asrlardan hisoblanadi. Uning ijrosi juda katta vokal va instrumental kuchlarni talab etadi, shuning uchun ham uni “Ming simfoniya” deb atashadi¹. Konsert ovoz rejissurasi ijodiy yo‘nalishlarining asosiy mohiyati ideologiya, ya‘ni mafkurani qo‘llab-quvvatlaydigan asbob-uskunalarni tanlash, falsafani aytish mumkin, miqdor bilan shok holatiga yetkizmasdan sifat darajasiga intilish yotadi.

XX asrning o‘rtalarida taniqli “Mercury” ovoz yozish kompaniyasi 3 ta mikrafon tizimi yordamida yozilgan klassik orkestr musiqasining stereo yozuvlarini chiqargan. “The New York times” gazetasining taniqli tanqidchisi ushbu yozuvlarni “Orkestrning jonli ishtirokidagi hayot” deb ta‘riflaydi va keyinchalik ushbu mikrafon texnikasi foydalanilgan barcha nashrlar “Living Presence” seriya nomini oladi. O‘sha paytlarda ko‘proq kanallarni yozib olish imkoniyati mavjud bo‘lishiga qaramay, Mercury Living Presence o‘z usullarini o‘zgartirmadi. Shu paytda Decca Records va Philips kompaniyalari zallarning akustikasini sinab ko‘rishar va kerakli tovush hajmiga erishish uchun ijrochilarni sahnadan parterga ko‘chirishar edi (Amsterdam shahridagi Concertgebouw simfonik orkestrning eksperimental yozuvlari), erishilgan natija o‘sha vaqtdagi keng ko‘lamli joylashtirish o‘ndan ortiq kanallar orqali yozib olingan. Keyinroq endi boshqa ovoz rejissori, “Delos” firmasining bosh ovoz rejissori, “Grammy” mukofoti sovrindori, “Handbook of Recording Engineering” kitoblari muallifi Jon Irgil istalgan fazoviy taasurotga biz endi an‘anaviy deb ataydigan usulni qo‘llash orqali erishish mumkin degan xulosaga keladi: mikrafonlarni o‘rnatishning uch kombinatsion rejasi – asosiy juftlik, uzoq va yaqin nuqtali mikrofonlar².

Ushbu topilmalarning har biri rivojlanish uchun zamin yaratib, keyinchalik izdoshlarga ega bo‘lgan va oxir-oqibat butun bir yo‘nalishga aylandi. Ularning har biri bilan tanishib, o‘zimiz uchun kamchilik va afzalliklarni ajratayotganda shuni yodda tutish kerakki, mikrofonlarni joylashtirish bilan bog‘liq barcha tajribalar, akustika, uskunalarni ixtiro etish va rivojlantirish faqat sifatni ko‘tarish maqsadida emas, balki o‘z ovozi topish – minglab yozuvlar orasidan taniy olinadigan ovoz uchundir.

Tovushlarni qayta ishlash turli texnologik usullarni o‘z ichiga oladi, hozirgi paytda texnologik usullarga quyidagilar kiradi.

¹ The Mahler Companion / Donald Mitchell, Andrew Nicholson. — Oxford: Oxford University Press, 2002. — 647 p. — ISBN 9780199249657.

² In Memorandum: John M. Eargle, Journal of the Audio Engineering Society, Vol. 55, No. 6, June 2007

1. Mikrofonlarning turini va sonini tanlash ularni aniqlash.
 2. Studiya, konsert zal va ochiq maydonlarda efir va zapis paytida, badiiy asarlarning partiturasida ko'rsatilgan dinamik eshittiruvlarda o'zgarishlarsiz yetkazib berish uchun baland, past (uroven) o'rnatish va boshqarish.
 3. Akustik va musiqiy balans makonda joylashuvi, musiqiy asbob yoki ovozning sof tembrini saqlab qolishni taminlash.
 4. Nutq aniqligini taminlash.
 5. Qo'shimcha qayta ishlovlarni qo'llash, sun'iy reverberatsiya, dinamik diapazonni kompressiyalash, chastotaviy korreksiyada yozish.
 6. Ovoz yozuvi yoki efir paytida, ovoz yozuvini minimumga olib kelish.
 7. Tematik eshittirishlarda nutq va musiqa, reklama bloklari ketma ketligida ovoz balandligining optimal balansini ushlab turish.
 8. Steriofonik eshittirishlarning monofonik bilan qo'shilishini ta'minlash.
- Bu vazifalarni bajarilishi esa, yuqori tajribali, bilimli mutaxassis bo'lishini talab qilardi. Ushbu kasb, ayniqsa, 70-yillarda raqamli texnika ishlab chiqarish steriofoniya, ko'pkanalli uskunalar, reverberatorlar, sintezator, kompyuter programmalar rivojlangani sari kamol topdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. The Mahler Companion / Donald Mitchell, Andrew Nicholson. — Oxford: Oxford University Press, 2002. — 647 p. — ISBN 9780199249657.
2. *In Memorandum: John M. Eargle*, Journal of the Audio Engineering Society, Vol. 55, No. 6, June 2007.
3. Amanmuradov Sh., Mirsaidova D. Ovoz rejissyorligi mahorati. - Toshkent: O'zDSMI. 2019. 117b.
4. Бунькова А., Мещеряков С. Студийная звукозапись и основы звукорежиссуры. - Екатеринбург. УГПУ. 2014. 175 с.
5. Kasimxodjayeva A. "Musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari". O'zDK.